



O'ZBEKISTON-YAPONIYA MUNOSABATLARIDA DINIY BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARINING AHAMIYATI

Qoraboyeva Mohidil Shukurjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Qiyosiy dinshunoslik mutaxassisligi magistranti
mohidilnasirdinova@gmail.com

(94) 652 38 36

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6299612>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Fevral 2022
Ma'qullandi: 15 - Fevral 2022
Chop etildi: 20 - Fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

*Diniy bag'rikenglik,
konfessiya, diniy e'tiqod*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston va Yaponiya davlatlarining o'zaro munosabatlarida diniy bag'rikenglik tamoyillarining ahamiyati, yapon xalqining dinga bo'lgan munosabati to'g'risida ma'lumot berilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi mamlakat ma'naviy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda butun Yer yuzida diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo o'zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda. Mustaqillik tufayli O'zbekiston fuqarolari uchun tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasida qayd qilinganidek, "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi". «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi bilan bog'liq huquq hamda burchlari aniq-ravshan belgilab qo'yildi. Diniy muassasalar faoliyatining qonun asosida olib borilishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlatdir. Bunday davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun diniy bag'rikenglik mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Zero, O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiya o'zaro totuvlikda faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan qisqa davr ichida mazkur yo'nalishda qator ishlar amalga oshirildi va diniy islohotlarga keng zamin yaratildi. XXI asrda diniy bag'rikenglik, umuman, diniy omilning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotdagi o'rnini va ahamiyatiga bevosita qaratilgan maxsus tadqiqotlarni ehtiyoj saqlanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida tinchlik, barqarorlikni yanada mustahkamlashda turli dindagi konfessiyalarning tarixi, ta'limoti, ularning jamiyat rivojidadagi o'rnini o'rganish katta



nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyat va an'analarni asrab-avaylashga, yurtimizdagi barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo totuvlik va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga, ular o'rtasida asrlar osha rivojlanib, sayqallanib kelayotgan qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek va yapon xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari uzoq o'tmish va tarixga ega. Yaponiya dunyo davlatlari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekiston mustaqilligini tan olgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mana necha yildirki, o'zbek va yapon xalqlari o'zaro hamjihatlikda faoliyat olib bormoqdalar. Yapon oilasining o'ziga xos xususiyatlari mehmondo'stlik va yoshi kattalarga an'anaviy hurmat-ehtiramli muomala qilishdir. Yapon bolalari o'z otalarini juda hurmat qilishadi va g'arb oilalaridan farqli o'laroq, oila a'zolari alohida, har kim o'z-o'zi bilan ovora bo'lib emas, balki farzandning tug'ilishidan, to butun hayoti davomida oila uning uchun eng yaqin va muqaddas narsa hisoblanadi. Bir uyda barcha oila a'zolari o'zaro totuvlikda birga yashaydilar. Chunki yapon milliy urf-odatlarini va diniy qadriyatlarini shakllanishida oilaning keksa a'zolarininig roli hamisha ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda dunyo xalqlari yapon milliy dini, e'tiqodi, an'ana va marosimlari, yapon madaniyatiga juda katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Bu mavzuga oid bo'lgan sohalarda ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Din tarix, falsafa, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar xalq

ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlari uning ildizidir. Mashhur ingliz faylasufi K. Douson ta'kidlaganidek, "Din tarix uchun kalitdir va agar biz madaniyatning diniy ildizlarini anglamas ekanmiz madaniyatning o'zini ham tushuna olmaymiz". Darhaqiqat, har qanday madaniy taraqqiyot zamirida ma'lum bir diniy g'oyaga bo'lgan e'tiqod mavjud. Faqat diniy e'tiqodlarni anglash orqaligina sivilizatsiyalar taraqqiyotini anglash mumkin. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori yapon xalqining ham madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Yapon ijtimoiy-madaniy hayotida din shunchalar muhim ahamiyat kasb etadiki, hattoki u an'anaviy bayramlarda ham yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin. Odatda Yaponiyada har qanday bayram sintoiylik ruhida va unga moslashtirilgan holda o'tkaziladi. Chunki yaponlarda kundalik turmushdagi yumush va vazifalarni bajarilishi ham bevosita va bilvosita ilohlar ixtiyori bilan bog'liq. Sintoiylik dini o'zining butun borlig'i bilan yer yuzidagi hayotga qaratilgan din. Shuning uchun xam bu dinning mohiyati Yaponiyada tarixan vujudga kelgan ijtimoiy siyosiy tuzumni diniy yoritib berishdan iborat bo'lgan.

Yapon davlat qonunchiligida diniy e'tiqod mavqeyiga e'tibor uzoq o'tmishdan kuchga kirgan bo'lib, bu omil o'z vaqtida avomni boshqarishda hokimiyat uchun juda qo'l kelgan. Chunki din vositasida o'tmish an'analari amal qilish, aslida mavjud ijtimoiy muhitni nazorat qilish degani edi. Shuning uchun yapon tuprog'ida tarixan intizom tushunchasi hamisha e'zozlangan va ajdodlar kulti bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Bugungi Yaponiyada



dindorlik an'anaviy marosimlarni asosan uy sharoitida ijro etishda namoyon bo'ladi. Ommaviy diniy tadbirlar esa ko'pchilikni jalb etsada, u qiziqarli tomosha vositasi sifatida nishonlanadi. Bular ming yillar davom etgan ijtimoiy hayot asoslarining tubdan yangilanganligi natijasidir. An'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylab, unga hurmat bilan qarash nafaqat yapon xalqi balki, barcha sharq xalqlariga xos jihatdir. Yaponlar sintoiylikning mohiyati va kelib chiqishini aralashtirmaslikka harakat qiladilar. Sintoiylik ular uchun ham tarix, ham an'ana, ham butun hayot demakdir. Bular asrlar osha shakllangan amaliyot bo'lib, yapon xalqi hayotida qadriyatga aylangan va u avloddan - avlodga o'tib kelmoqda. Sintoiylik marosimlarining o'ziga xosligi shundaki, unda butun bir oila o'zaro birlashgan holatda, birgalikda o'tkaziladi. Shuning uchun ham yapon jamiyatini o'zaro ishonchga asoslangan jamiyat desa bo'ladi. Yaponlar hayotida diniy marosimlarga hurmat shu darajada yuqoriki, ularni marosimda ishlatiladigan har bir buyumni o'z o'рни va vazifasida ishlatishlari va inson ruhiyatining ta'siri, uning marosimga butun vujudi bilan kirishishida ko'rish mumkin.

Manbalarda keltirilganidek, har bir dinda topinish obyekti - xudo bo'lishi lozim. Yaratuvchi bilan insonni bog'lab turadigan ibodat va marosimlar majmuyi (qurbonlik, ro'za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Jumladan, Islom dinida "namoz mo'minning me'roji" (ya'ni Alloh taoloning huzuriga ko'tarilishi) hisoblansa Xristianlikdagi "sirli marosimlar" da Muqaddas Ruhning o'zi ishtirok etadi deb hisoblanadi. Shu tariqa, mavjud barcha

dinlarda kultlar vositasida e'tiqodchilar o'z ilohlari bilan bog'lanadilar.

Eng qadimgi diniy e'tiqodlari oilaviy kult, ya'ni ajdodlar va qabila ruhiga sig'inish Kami bo'lib bunda vafot etgan ajdodlar ruhimi yoki yer va tabiat hodisalari nazarda tutilganmi aniq aytish qiyin. Kami so'zi "yuqorida", "oliy rahnamo" degan ma'nolarni anglatadi. Yaponiya xudolar panteonida ham Kami kultiga munosabat juda yaxshi shakllangan bo'lib, bu haqida ustozimiz N.G'.Nizomiddinovning "Qadimgi Yaponiya tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati" asaridan quyidagi ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin.

"Bizning mamlakatimiz misolida Kami va insonning o'zaro uyg'unligi ko'rinadi. Agar uni xudo va insonning g'arb mamlakatlaridagi munosabatlari bilan taqqoslansa, ular o'rtasida juda katta farq mavjudligini sezish qiyin emas. G'arb mifologiyasiga xos "ilohiy g'azab", "ilohiy jazo" va "ilohiy qiyomt" kabi tushunchalar bizning "muqaddas tariximiz"da tubdan farq qiladi hamda bu xususida diyorimizdagi Kami va inson munosabatlari tafovuti ham o'zgacha.

Qadim zamonlardan beri Yaponiya hududida ikkita din: milliy dini bo'lgan sintoiylik va tashqaridan kirib kelgan buddaviylik mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar natijasida Yaponiya xudolar panteoni shakllangan. Yaponiya xudolar panteoni haqidagi ma'lumotlarni 7-8-asrlarda yozilgan afsona va hikoyalardan tashkil topgan yapon solnomalari "Kodziki" va "Nixonsyoki"(Naxongi)lardan bilib olishimiz mumkin. Yapon kohinlarining kosmogonik nazariyalariga ko'ra, dastlab osmon va yer bo'lgan. Ular avval 3 ta, keyin yana 2 ta, so'ng 5 juft ilohlarni yaratganlar. Yer, xususan, yapon orollari yaratuvchisi



Idzanagidir. U rafiqasi Idzanami bilan samoviy ko'prikda turib, dengiz suvlarini uzun nayzasi bilan shopirib orollarni birin-ketin yaratganlar.

Yaponiya xudolar panteoniga quyidagi ilohlarni kiritish mumkin:

- Idzanagi – "1-odam" nomi bilan tanilgan. Rafiqasi Idzanami bilan birgalikda yerni yaratgan;
- Idzanami – "birinchi ayol" sifatida tanilgan. Eri Idzanagi bilan birgalikda ko'lab xudolarni dunyoga keltirgan. Olov xudosi Kagatsuchini dunyoga keltirish vaqtida vafot etgan;

Kagatsuchi – olov xudosi. Idzanagi va Izanamining o'g'li. Uni dunyoga keltirayotib onasi Izanami vafot etganidan g'azablangan otasi Idzanagi uni qilich bilan o'ldiradi. Uning parchalangan tanasi va qonidan ko'plab kamilar yaraladi. Zamonaviy yapon madaniyatida kamilarga bo'lgan e'tiqod milliy an'analar bilan uyg'unlashgan holda saqlanib kelmoqda. Kamilarga atab qurilgan ibodatxonalar rang-barangligi va gavjumligi bilan e'tiborni tortadi. Kamilarga atab turli bayram va marosimlar o'tkaziladi. Odatda ibodatxonalarda har doim bayramlar, marosimlar o'tkaziladi. Katta ommaviy bayram va marosimlar juda rang-barang tarzda o'tadi. Ushbu bayram va marosimlarda hattoki dinga ishonmaydigan

yaponlar ham faol ishtirok etishadi. Har xil bayramlarni tashkil etish ibodatxona zimmasiga yuklatiladi. Sababi esa, har bir diniy marosim yoki bayram inson hayotining asosini tashkil etadi. Inson u orqaligina o'zida ruhiy taskinlikni topadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sintoiylik marosimlarining aksariyati, bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgan bo'lsada, ammo ularning ba'zilar an'anaviy qadriyatga aylanib, xalq madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Jamiyatda an'ana, marosim, urf-odat bularning barchasi ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ular qanday shaklda va qanday ko'rinishda bo'lmasin, xalq madaniyatida yuksak e'tirof etiladi. Diniy marosimlar ham inson hayotiga uning nazdida yengillik, sokinlik baxsh etadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda ichki va tashqi aloqalarida o'zaro bag'rikenglik tamoyillari asosida faoliyat yuritib kelayotgan davlat sifatida millatlararo totuvlikni ta'minlashda ularning diniy va milliy an'analariga hurmat asosida ish olib bormoqda. Yaponiya va O'zbekistonning o'zaro aloqalarida esa yapon xalqi urf-odatlariga nisbatan bag'rikenglik juda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirov A. Etnologiya. – Toshkent, 2014.
2. Низомиддинов Н.Ф. Жанубий, Жануби-Шарқий ва Шарқий Осиё халқлари қадимги тарихи, диний эътиқоди, маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Давлат Адабиёт музейи, 2010. – 625 б.
3. Yoqubov U. Yaponiya madaniyati. – Toshkent, 2014. – 84 b.
4. Арутюнов С. А., Светлов Г. Е. Старые и новые боги Японии. – Москва: Наука, 1968. – 200 с.
5. Васильев А.С. История религий Востока. – Москва: Наука, 1997.
6. Мешеряков А.Н. Древняя Япония. Синтоизм и Буддизм. – Москва: Наука, 1987.



7. Маркаръян С.Б., Молодякова Э.В. Праздники в Японии. – Москва: Наука, 1990. – 248 с.
8. Bary William T. de. Sources of the Japanese Tradition. – New York: Columbia University Press, 1958.
9. Bernhard S. and Mark T. The culture of secrecy in Japanese religion. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2006. – 398 p
10. Dawson Ch. God. History and Historians: an anthology of modern Christian views of history. – New York, 1977.